

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING NUTQINI O'STIRISHDA QO'LLANILADIGAN METODLAR

Jamila Akbarova Xasanboy qizi

Andijon viloyati Baliqchi tumani 8-maktab Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'qish darslarida nutq o'stirish metodikalari, boshlang'ich sinf oquvchilarining nutqlaridagi nuqsonlarni bartaraf etish yo'llari, o'quvchilar nutqini o'stirish uchun rioya qilishi kerak bo'lgan shartlar haqida batafsil bayon etilgan.

Kalit so'zlar: nutq, metodika, ta'lim sifati, adabiy til normalari, sintaktik qurilish.

Kirish:

Ma'lumki, nutq - inson faoliyatining turi, til vositalari yordamida tafakkurni ishga solishdir. Nutq o'zaro aloqa va xabar funksiyasini, o'zaro fikrni his-hayajon bilan ifodalash va ta'sir qilish vazifasini amalga oshiradi. Yaxshi takomillashgan nutq jamiyatda kishining faol harakatining asosiy vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. O'quvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olish quroli sanaladi. Agar o'quvchi va uning tildan bajargan ishlari nazarda tutilsa, nutq o'stirish deganda, tilni har taraflama aktiv amaliy o'zlashtirish tushuniladi. Agar o'qituvchi ko'zda tutilsa, nutq o'stirish deganda, o'quvchilar tilning talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishi va bog'lanishli nutqni muhim faol egallashlariga yordam beradigan metod va ish turlarini qo'llash tushuniladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya:

Nutq o'quvchilar tafakkurini o'stirishda asosiy vositadir. Nutq fikrni bayon qilish vositasi bo'libgina qolmay, uni rivojlantirish quroli ham hisoblanadi. Fikr nutqning psixologik asosi vazifasini bajaradi, uni o'stirish sharti esa fikrni boyitish sanaladi. Aqliy faoliyat sistemasini egallash asosidagina nutqni muvaffaqiyatli o'stirish mumkin. Shuning uchun o'quvchilar nutqini o'stirish materialni tayyorlash, takomillashtirish, mavzuga oidini tanlash, joylashtirish, mantiqiy operatsiyalarga katta ahamiyat qaratiladi.

Tafakkur til materiali yordamida nutqiy shakllantirilsa va bayon etilsagina muvaffaqiyatli o'sadi. Tushuncha so'zlar yoki so'z birikmalari bilan ifodalanadi, shunday ekan, tushuncha til vositasi bo'lgan so'zda muhim aloqa materialiga aylanadi. Kishi tushuncha ifodalaydigan so'zni bilsagina, shu tushunchaga asoslangan holda, tashqi nutqda fikrlash imkoniga ega bo'ladi.

Natijalar:

Ма'lumki, boshlang'ich sinflarda o'quvchi nutqini o'stirish ona tili predmetining asosiy vazifasi hisoblanadi. Biroq bu vazifa boshqa o'quv predmetlari doirasida ham amalga oshiriladi. Jumladan, o'qish darslari jarayonida o'quvchilar nutqini o'stirish uchun ko'plab imkoniyatlar mavjud. Ya'ni, o'qish kitobidagi matnlarni o'rganish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilari o'zi uchun notanish bo'lgan ko'plab so'zlar va ularning ma'nosini o'rganadi, ya'ni ularning so'z boyligi oshadi.

Nutq o'stirish boshlang'ich ta'lim pedagogikasining tarixi va nazariyasini ham, muomala madaniyatini o'rgatish uslubiyotini ham o'z ichiga oladi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi, dastlab, o'quvchilariga umumiy estetik tarbiya berish vazifalarini tushunib olishi kerak. Ushbu vazifalar faqatgina yaxshi muomala qilishni o'rgatishdangina iborat bo'lib qolmasligi lozim. Bunda, eng asosiysi, bolaga nutq madaniyatini o'rgatish va unda har bir mashg'ulotlarga qiziqish uyg'otish, so'z, gap orqali nutqiy faoliyatga ehtiyoj hosil qilish, shuningdek, ularda bilim, ko'nikma va malakalarni tarkib toptirishdir.

Muhokama:

Darhaqiqat boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqlaridagi nuqsonlarni bartaraf qilish o'quvchilar va logopedlar zimmasiga yuklanadi. Talaffuzdagi kamchiliklarni aniqlashda bolaning nutqini tekshirib ko'rish, nutq buzilish sabablarini o'rganish kerak. Buning uchun har bir bola nutqini tekshirish varaqasi to'ldirilib, qaysi tovushlar to'g'ri yoki noto'g'ri talaffuz qilayotgani belgilab boriladi. Nutq o'stirish-ongli o'qishni, so'zlash va yozishga o'rgatishni, til haqida o'quvchilarning yoshi va tushunchasiga xos bo'lgan bilim berishni, ularning lug'at boyligini oshirishni, boshqalarning nutqiga e'tibor va qiziqishni o'stirish, kitob o'qishga muhabbat uyg'otishni ko'zda tutadi. Og'zaki nutqqa o'rgatishning dastlabki davrida daktilologiyadan foydalaniladi. Bu narsa bolalarning tovushlarni talaffuz qilib, o'zlashtirib borganlari sari faqat yordamchi vosita sifatida xizmat qiladi.

Xulosa:

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining darslarida olib boriladigan hamma mashg'ulotlarning yetakchi o'rni nutq o'stirish bo'lib, u savod o'rgatish, chiroyli yozish malakalarini takomillashtirish va fikrlash doirasini kengaytirish vazifalarini o'z ichiga oladi. Bu darslarda ko'proq amaliy maqsadlarni ko'zlash, til boyluklaridan nutqda foydalanish malakalarini shakllantirish, ijodiy fikrlash, o'quvchilarning til sezgirligini tarbiyalash lozim. Ularning og'zaki nutqini doimiy o'stirib borish bog'lanishli nutq, matn tuzishlarda amaliy yordam beradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayeva Q. Nutq o'stirish. – T.:O'qituvchi, 2004.
2. Muhiddinov A.G'. O'quv jarayonida nutq faoliyati. – T.: O'qituvchi, 2001.
3. Safarova X. I “Ona tili va adabiyot darslarida og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirishning asosiy omillari”. Dars ishlanmasi.
4. Karimova V.M., Sunnatova R.I., Tojiboyeva R.N. Mustaqil fikrlash. – T.:Sharq, 2000.
5. Abdurazzoqova D. “Interfaol metodlar: nazariya, amaliyot, tajriba” Pedagoglar uchun qo‘llanma. Toshkent-2013.